

“MANAS” - QIRG‘IZ XALQINING UZOQ O‘TMISHINI YORITUVCHI YORQIN ASAR

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.054>

Samadov Ro‘zimurot Rizamatovich
samadovrozimurod15@gmail.com

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola qirg‘iz xalqining milliy boyligi hamda madaniy merosi hisoblangan “Manas” eposi xususidadir. Maqolada “Manas” eposining xalq hayotida tutgan o‘rni, millatning tarixi va buguni, milliy ruhi, turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liqligi haqida fikr yuritiladi. Qolaversa “Manas” ijrochiligi va ijrochilari haqida ham so‘z yuritiladi. Eposdagi xulq-atvor odoblari, xalq tarbiyachilarining pedagogik mahorati hamda ularning tarbiya metodlari haqida ham so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “Manas”, “Ramanaya”, “Mahobhorat”, “Iliad”, “Odisey”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Ko‘blandi botir”, epos, doston, an’ana, Manaschi

THE EPIC MANAS IS A REMARKABLE LITERARY MONUMENT THAT ILLUMINATES THE DISTANT HISTORICAL PAST OF THE KYRGYZ PEOPLE

Samadov Rozimurot Rizamatovich
samadovrozimurod15@gmail.com

Institute of Uzbek National Music named after Yunus Rajabiy

Abstract: This article examines the epic Manas, which is regarded as a national treasure and an essential component of the cultural heritage of the Kyrgyz people. The study analyzes the role of the epic in the life of the people, its close connection with the nation’s history and present, its national spirit, and traditional way of life. Particular attention is paid to the performance tradition of Manas and its narrators (manaschis). The article also explores the ethical norms reflected in the epic, the pedagogical mastery of folk educators, and the educational methods embodied in the narrative.

Keywords: Manas; Ramayana; Mahabharata; Iliad; Odyssey; Alpomish; Gorogly; Kublandi batyr; epic; dastan; tradition; Manaschi

Har bir xalqning ma’naviy-madaniy rivojlanishi bevosita o‘sha xalqning tarixiga, kelib chiqishiga borib taqaladi va asrlar mobaynida sayqallanib, rivojlanib boradi.

Xuddi shunday xalqlarning musiqa va san'ati ham qadim o'tmishdan boshlanganligini tarixiy manbalardan bilish mumkin. Qizg'iz musiqa madaniyati ham ana shunday bosqichlarda rivojlanganligini va rivojlanish jarayonida yangi janrlar paydo bo'lishi hamda shu o'rinda bir qancha shakllarning yo'qolib ketishini ko'rishimiz mumkin.

Qirg'izlar hayotida qadimdan musiqiy aytimlar mavjud bo'lgan. Bunga diniy, mavsumiy, maishiy, marosim aytimlarini misol qilish mumkin. Bu aytimlar o'ziga xos ohangda, ritmda va rechitativ tarzda ham ijro etilgan. Qirg'iz musiqa va qo'shiqlarida xalqning dunyo qarashi, turmush tarzi, ichki kechinmalari namoyon bo'ladi.

Qirg'iz musiqa janrlariga nazar soladigan bo'lsak, qirg'iz xalqi o'sish va yuksalish jarayonida epik madaniyatning yuksak namunalarini yaratdi. Boshqa qardosh xalqlar o'z tarixini, adabiyotini, san'atini va madaniyatini yozma adabiyotlarda qoldirgan bo'lsa, qirg'izlar tarixiy voqealarni og'zaki epik dostonlarda asrlardan-asrlarga saqlab keldi. Bu esa o'z navbatida turli mazmundagi va rang-barang yo'nalishdagi epos va dostonlarni yaratishga turtki bo'lgan. Qirg'iz eposi ikkita yirik qatlamdan tashkil topgan. Bular katta va kichik eposlardir. Katta epos deganda "Manas" tushuniladi, kichik epos deyilganda esa hajman kichik bo'lgan dostonlar va poemalar nazarda tutiladi. "Yerto'shtuk", "Kojojash", "Kedeyxan", "O'ljaboy bilan Kimishjon" kabi dostonlarni kichik eposlarga misol qilib aytishimiz mumkin. "Manas" eposi esa kichik eposdan hajm va tuzilish jihatidan katta hamda farqlidir¹. Qirg'iz xalqi O'rta Osiyodagi eng qadimgi xalqlardan biri hisoblanadi. Bu haqda qadimgi manbalarda, Xitoy yilnomalarida, O'rxon-Yenasay bitiklarda va albatta "Manas" eposida qatorlicha ma'lumotlarni uchratish mumkin.

"Manas" nihoyatda keng ko'lamga ega. Boshqa xalqlardagi "Ramanaya", "Mahobhorat", "Iliad", "Odisey", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Ko'blandi botir" va boshqa dostonlar qatorida tilga olinadi. Uning farqi shundaki, u hajm jihatidan dunyodagi eng yirik asar hisoblanadi. Asar yuksak gumanizm ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, qirg'iz xalqi hayoti, tarixida kechgan voqealar, elatlarning yashash tarzi namoyon bo'ladi.

"Manas" qirg'iz xalqining eng ulug'vor va qahramonlik eposidir. Manas haqidagi eng qadimgi ilmiy manbalardan biri 1503-yilda yozilgan "Majmu at-tavorix" qo'lyozmasi hisoblanadi. Unda Manas tarixiy shaxs sifatida tilga olinadi. Olimlar eposning kelib chiqishi haqida turli fikrlarni ilgari surgan: Ba'zilar uni qadimgi mif va rivoyatlarga bog'laydi. Ayrim tadqiqotchilar epos VI-X asrlardagi qadimgi turk davlatchiligi bilan aloqador deb biladi. Boshqalar esa XIII-XIV asrlardagi tarixiy voqealar bilan bog'laydi. Akademik V. M. Jirmunskiy epos syujetining yakuniy tarixiy qatlamini XVI-XVII asrlardagi qalmoq urushlari bilan izohlaydi².

¹ V. Vinogradov. Kirgizskaya narodnaya muzyka. Frunze — 1958. 114-bet.

² Imaraliev j. R. Epos "Manas" - vechnoe velikoe nasledie kirgizskogo naroda. Bulletin of Science and Practice. 2023

Bu nom bosh qahraminning ismi bilan ataladi. Asarning markaziy g'oyasi qahramonona vatanparvarlik bo'lib, ozodlik uchun kurash, ona yurtning tashqi va ichki yovuz kuchlardan qutqarish va qo'riqlash, zulm va haqsizlikka nafrat, diniy va milliy an'analarga xurmat yetakchilik qiladi. Qolaversa eposda lirik - romantik mavzu va obrazlar ham uchraydi. Bunga Kedey kan, Er toshtyuk, Janish Baish, Kurmanbek kabilarni misol qilishimiz mumkin. "Manas"ning alohida ahamiyati shundaki, u biron-bir urug' yo qabila dostoni bo'lmay, umumxalq eposidir. Ikkinchidan unda tasvirlangan voqelik tugal ya'ni boshlanishidan yakuniga qadar mumtoz qahramonlik eposining janr xususiyatlariga to'la muvofiq keladi va shu juhati bilan ham monumental hisoblanadi. "Manas" eposi jahon madaniyatidagi noyob yodgorlikdir. Hozirgi vaqtda bu asar nafaqat folklorchilar orasida balki, kitobxonlar orasida ham mashhur hisoblanadi. Bu asar qadimiy qirg'iz xalqining ma'naviy hayoti va qahramonligi rivojlanishining ensiklopediyasi deyish mumkin. "Manas" eposining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u tirik epos bo'lib, og'zaki shaklda yoyilib, yashab bizning kungacha yashab kelmoqda. "Manas" qirg'iz xalqining asrlar davomidagi ko'zgusidir. U xalq hayotining tarixiy kortinalarini o'z ichiga keng qamrab oladi hamda xalqning poetik ijodidan muhim o'rin egallaydi.

"Manas" eposi hajm jihatidan dunyo bo'yicha eng katta asar hisoblanadi. Sagimbay O'rozbekov variantida birinchi qismining hajmi 180 378 she'riy qatordan iborat bo'lsa, Sayakbay Karalayevning variantida 3ta qismining umumiy hajmi 500 553 misrani tashkil qiladi va har bir qismining o'nlab variantlari mavjud. Qirg'iziston fanlar akademiyasining umumiy fanlar qo'lyozmalari fondida eposning uch qismli 42 varianti mavjud bo'lib, 30 ta manaschidan yozib olingan jami 2 million misra saqlanib kelinmoqda³.

Malumki, epik asarlar xalqning ma'naviy-madaniy hayotida katta rol o'ynaydi. "Manas" eposi bunga yorqin misol. Hozirgacha qirg'iz xalqida tug'ilgan chaqaloqlarga buyuk odamlar, payg'ambarlar ismlarini qo'yish odatdir, lekin hech qaysi bir qirg'iz o'g'lining ismini Manas deb qo'yishmagan. Chunki ular Manasni shu qadar ulug'lashganki, agar kimdir shu nom bilan atalsa Manasga nisbatan hurmatsizlik hisoblangan. Bu esa Manasning shaxs sifatida qanchalik buyukligini ko'rsatib beradi. "Manas" badiiy asar sifatida xalq orasida juda mashhur bo'lib, xuddi boshqa epos mavjud emasdek tuyuladi. Hajmi jihatidan katta bo'lishiga qaramasdan har bir qirg'iz asarning syujetlari bilan tanish va yoddan bilishadi.

"Manas" eposi turkumli asarlar sirasiga kiradi. Asar uch qisimdan iborat bo'lib, genealogik sikl asosida bosh qahramon Manas, uning o'g'li Semetey va Semeteyning o'g'li Seytekning qahramonona hayoti tafsiliga bag'ishlangan⁴. Ya'ni bu epos trilogiya bo'lib, birinchi qism "Manas", ikkinchi qism "Semetey", uchinchi qism esa "Seytek"

³ Musaev Samar. Manas—geroicheskiy epos kirgiziskogo naroda. Frunze 1968. 5-bet.

⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 10-jild. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2005. 436-bet.

haqida. Eramizning VII - VIII asrlarida qirg'iz qabilalari birlashish arafasida turganida Manas ismli odam ularga boshchilik qiladi. Eposda Manas ko'p qirrali obraz sifatida ko'rsatilgan. Jang vaqtida u bamisoli yaxshiy yo'lbars, hayotda esa Manas odil hukumdor, mehribon oilaboshi gavdalanitiriladi.

Eposda shaxsning aql-zakovat, axloq, ekologik madaniyat va mehnatga tayyorgarlik jihatidan o'zaro bog'liq va yaxlit rivoji g'oyasi ilgari suriladi. An'anaviy marosimlar va shaxs kamoloti haqidagi qarashlar milliy pedagogik tizimning asosiy yo'nalishlari sifatida asoslab beriladi. Vatan ozodligi uchun kurash, yurt va xalqni bosqinchilardan himoya qilish, qirg'iz qabilalarini yagona davlatga birlashtirish, tarqoqlikni bartaraf etish, chin do'stlik va insonparvarlik motivlari - bularning barchasi yoshlarni tarbiyalashning kuchli omillari sifatida namoyon bo'ladi. Asardagi obrazlar tizimi, qahramonlarning shaxsiy fazilatlarini zamonaviy yoshlarni o'z xulq-atvori va fuqarolik burchining yuksak mezonlari haqida o'ylashga undaydi⁵.

Ushbu eposda xalq tarbiyachilarining pedagogik asoslanganligi va ularning tarbiya metodlarining samaradorligi alohida "pedagogik hodisa" sifatida namoyon bo'ladi. Manasni tarbiyalash jarayonida Bakay, Koshoi, Akbalt, Azhybai, Oshpur, Zhamgyrchy, Koketei kabi xalq murabbiylari quyidagi an'anaviy pedagogik usullardan foydalanadilar:

- nasihat
- ishontirish
- ko'rsatmalilik
- shaxsiy namuna
- jazo va rag'bat
- duo va vasiyat

Ular Manas va uning lashkarlarini mehnat qilishga, aqliy va jismoniy yetuklikka erishishga, tabiat va yurti sevisish hamda himoya qilishga o'rgatadilar.

Eposni o'rganish bevosita aqinlar ijodi bilan bog'lanadi. "Manas" eposining ijrochilari "Manaschi"lar deb aytilsa, "Semeteychi" va "Seyteychi" kabi atamalar qolgan qism ijrochilariga nisbatan aytiladi. XX asrga qadar epos ijrochilari "Jomoqchi" deb yuritilgan. Keyinchalik bu atama ilmiy leksika va xalq tilida "Manaschi" deb kiritilgan. Qirg'iz musiqa ijodi va epik aytimlarning rivojida Sagimbay O'rozbekov, Sayakbay Karalayev, Baimbet Abdirahmanov, Shapak Ibrismendiev, Janibay Kojekov, Akmat Rismendiev, Moldobasan Musulmanqulov, Ibrohim Abdurahmanov kabi oqinlarning faoliyati va ijodiy me'rosi beqiyosdir. Oqinlar faoliyatiga nazar solar ekanmiz ularning ijodida qirg'iz folklori hamda epik aytimlarning o'ziga xos ijro uslubi va yo'nalishlarning guvohi bo'lishimiz mumkin. "Manas" eposining rivojlanishi hamda uning variantlarini yozib olinishida Sagimbay O'rozbekov va Sayakbay

⁵ Koldoshev Misirali. Dzhaniyev Kanibek Dzhamratovich. Educational Ideas In The Kyrgyz Folk Epic "Manas". African Journal of Biomedical Research, 2024. 27(6S), 114–116

Karalaevning hissasi juda katta. Sayakbay Karalaevning "Manas" eposini ijro etishi Markaziy Osiyo og'izaki epik san'atining cho'qqisi sifatida e'tirof etilgan. Yozuvchi Chingiz Aytmatov uni "XX asrning Gomeri" deb atagan.

Ushbu monumental epos o'ta murakkab va buyukdir. Hozirgi zamonning bilimdon kitobxonlari esa "Manas"ga ijodiy yondoshib o'qimog'i zarur. "Manas" eposi real hayot, tarixiy voqealar zamiriga asoslanib yaratilgan. Chuqur gumanizm bilan sug'orilgan bu asarni qahramonlik eposi desak yangilishmaymiz. Elatlarning yashash tarzi, oilaviy hayoti, qirg'inbarotlar insoniyat boshiga qanday kasofatlarni olib kelishi shu qadar mahorat bilan bayon etilganini ko'rish mumkin. Dostonda milliy turmushning barcha jihatlari keng ko'lamda va teran aks etgan, shuning uchun ham Ch. Aytmatov uni "qadimgi qirg'iz xalqi ruhining sarbaland cho'qqisi" deb atagan. Karalaye sharafiga festival va yodgorliklar tashkil etilgan, uning siymosi 500 somlik banknotda tasvirlangan.

"Manas" ilk bor o'zbek tiliga 1964-yil betakror shoir Mirtemir tomonidan tarjima qilingan hamda birinchi kitob nashr qilingan. 1987-yilda kitobning ikkinchi nashri Sulton Akbariy tarjimasini bilan chiqariladi. Hazirda bu asar o'zbek kitobxonlari orasida ham sevib mutoala qilinmoqda. Eposni yanada ko'proq o'rganish va uni yangi qirralarini ochish bizga albatta foyda keltiradi. Eposdagi pedagogik g'oyalarni maktablar, oliy ta'lim muassasalari va boshqa ta'lim tizimlarida keng qo'llash, Epos asosida aniqlangan empirik bilim va xalqona e'tiqodlarning yosh avlod tarbiyasidagi o'rnini kuchaytirish, "Vatan", "Ona yurt", "Muqaddas zamin" tushunchalarini yoshlar ongiga chuqur singdirish, ularni yurt va xalqni himoya qilishga doimo tayyor ruhda tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, eposning pedagogik mazmunida aks etgan tarbiya tizimi va yo'nalishlariga oid matnlarni (misra va parchalarni) kichik hajmda nashr etish qilish, talabalar, o'quvchilar, ota-onalar va kitobxonalarning mustaqil o'rganishi uchun sharoit yaratish, tadqiqot materiallari asosida metodik qo'llanmalar va darsliklar tayyorlab, ta'lim muassasalariga taqdim etish bugungi globallashuv jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V. Vinogradov. Kirgizskaya narodnaya muzyka. Frunze - 1958.
2. Musaev Samar. Manas-geroicheskiy epos kirgizskogo naroda. Frunze 1968.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 10-jild. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2005
4. Imaraliev j. R. Epos "Manas" - vechnoe velikoe nasledie kirgizskogo naroda. Bulletin of Science and Practice. 2023
5. Koldoshev Misirali. Dzhaniyev Kanibek Dzhamatovich. Educational Ideas In The Kyrgyz Folk Epic "Manas". African Journal of Biomedical Research, 2024.

6. Koldoshev, M. Bylykova, M. Taking Into Account Age-Related Characteristics in Education (on the Example of “Manas”). American Journal of Psychiatric Rehabilitation. 2025.